

**YANGI TARAQQIYOT DAVRIDA TALABALARNI MA'NAVIY
QADRIYATLAR TIZIMINI RIVOJLANTIRISH
(SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARI MISOLIDA)**

Sattarova Zuhra Abirqul qizi

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
1-kurs magiatranti*

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada yangi taraqqiyot davrida talaba-yoshlarning kelajak hayoti davomida ma'naviy qadriyatlar tizimini rivojlantirish masalalari. Sharq mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy merosi asosida tahlil qilinadi. Al-Farobiy, Ibn Sino, Al-G'azzoliy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlarida ilgari surilgan axloqiy, tarbiyaviy va ma'naviy g'oyalar bugungi ta'lim jarayonida talabalar shaxsini barkamol etib shakllantirishda muhim metodologik asos sifatida qaraladi. Tadqiqotda ma'naviy qadriyatlarning mazmuni, qayerda va qachon shakllanishi, ularni rivojlantirish omillari hamda oliy ta'lim tizimida tatbiq etish mexanizmlari ilmiy jihatdan yoritiladi.

Kalit so'zlar: ma'naviy qadriyatlar, oila, jamiyat talaba-yoshlar, Sharq mutafakkirlari, barkamol shaxs, axloqiy tarbiya, tajriba, hayotda qo'llash yangi taraqqiyot davri, rivojlanishdagi o'rni.

Abstract. This article examines the development of the system of spiritual values of students in the new era of development based on the philosophical and pedagogical heritage of Eastern thinkers. The ethical and moral views expressed in the works of Al-Farabi, Ibn Sina, Yusuf Khos Khojib, Alisher Navoi, and Al-Ghazali are analyzed, and their role in shaping a spiritually mature student personality in higher education is substantiated. The study highlights the importance of integrating Eastern spiritual heritage into modern educational processes.

Key words: spiritual values, students, Eastern thinkers, moral education, holistic personality, modern development.

Kirish

Yangi taraqqiyot davrida jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri – bu ma'naviy barkamol, mustaqil fikrlovchi va ijtimoiy mas'uliyatni chuqur anglaydigan yosh avlodni to'g'ri yetuk shaxs qilib tarbiyalashdir. Globallashuv sharoitida axborot oqimining kuchayishi, ma'naviy tahdidlarning ortib borishi talaba-yoshlarning ma'naviy qadriyatlar tizimini mustahkamlash zaruratini yanada dolzarb etmoqda. Sharq mutafakkirlari asarlarida ilgari surilgan insonparvarlik, adolat, ilmga intilish, ilm yo'lida to'g'ri qaror qilish, haqiqat yo'lida bo'lish, mustaqil fikr yurutuvchi, axloqiy komillik g'oyalari bugungi ta'lim tizimi uchun bebaho manba hisoblanadi. Shu bois mazkur maqolada Sharq mutafakkirlari merosi



asosida talabalarni ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi ilmiy-nazariy jihatdan o'rganiladi.

Asosiy qism

1. Ma'naviy qadriyatlar tushunchasi va uning talaba shaxsini shakllantirishdagi o'rni

Ma'naviy qadriyatlar – bu jamiyat va shaxs hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi axloqiy me'yorlar, e'tiqodlar, an'analar va g'oyalarning majmuasidir.

Talaba-yoshlar ongida ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish ularning ijtimoiy faolligi, kasbiy mas'uliyati va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlaydi.

Yangi taraqqiyot davrida ta'lim faqat bilim berish bilangina cheklanmasdan, balki shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlashga yo'naltirilishi lozim. Bu jarayonda Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

2. Sharq mutafakkirlari asarlarida ma'naviy tarbiya masalalari

Sharq mutafakkirlari inson kamolotini ilm va axloq birligi asosida talqin qilganlar. Jumladan, **Abu Nasr al-Farobiy** "Fozil odamlar shahri" asarida komil insonni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ko'rsatadi. Uning fikricha, insonning baxtga erishishi axloqiy yetuklik bilan chambarchas bog'liq. Axloqiy yetuk inson har qanday vaziyatda ham teran fikr yuritib to'g'ri xulosa qilib vaziyatni tahlil qila olishlari ham aytib o'tilgan.

Ibn Sino ta'lim va tarbiyani uzviy jarayon sifatida baholab, yoshlarni halollik, mehnatsevarlik va mas'uliyat ruhida tarbiyalash zarurligini ta'kidlaydi. Bunda farzandlar tarbiyasida oilaning, jamiyatning o'rni qay darajada muhim rol o'ynashi keng yoritib berilgan.

Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida adolat, donishmandlik va axloqiy poklikni jamiyat barqarorligining muhim sharti sifatida ilgari suradi.

Alisher Navoiy asarlarida esa insonparvarlik, vatanparvarlik va ma'naviy poklik g'oyalari yetakchi o'rin egallaydi. U yosh avlodni ilm-ma'rifat va yuksak axloq asosida tarbiyalashni jamiyat kelajagi bilan bog'laydi. Ushbu kitobda yosh avlodni kitobga bo'lgan mehr muhabbatni uyg'otish ularni majburiy emas balki o'zlarining qiziqishlari orqali ma'naviy bilimlarini oshirish aytib o'tilgan.

3. Yangi taraqqiyot davrida Sharq mutafakkirlari merosining ta'limdagi ahamiyati

Bugungi kunda Sharq mutafakkirlarining ma'naviy merosini oliy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu meros:

- talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi;
- axloqiy mas'uliyat va ijtimoiy faollikni kuchaytiradi;
- ma'naviy immunitetni shakllantiradi.

Ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishda fanlararo yondashuv, tarbiyaviy mashg'ulotlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar hamda mutafakkirlar asarlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh avlod kimligini asl nasli kimlar qanday insonlar bo'lib,



o'tganliklari bu kelajakda o'z hayotlarini to'g'ri boshqara olish ko'nikmalariga erisha oladilar.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, yangi taraqqiyot davrida talabalarni ma'naviy qadriyatlar tizimi asosida tarbiyalash jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omildir. Sharq mutafakkirlari asarlarida ilgari surilgan axloqiy-falsafiy g'oyalar bugungi ta'lim tizimida talaba-yoshlarning ma'naviy kamolotini ta'minlashda mustahkam ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu merosdan samarali foydalanish barkamol, ma'naviy yetuk va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga zamin yaratadi. Biz yoshlarni terang fikr yuritish kelgusida olgan bilim va ko'nikmalarini hayotda to'g'ri tadbiq etishda yuqori darajada o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Al-Farobiy. *Fozil odamlar shahri*. – Toshkent: Fan, 1993.
2. Ibn Sino. *Donishnoma*. – Toshkent: Sharq, 2004.
3. Yusuf Xos Hojib. *Qutadg'u bilig*. – Toshkent: Yozuvchi, 2011.
4. Alisher Navoiy. *Mukammal asarlar to'plami*. – Toshkent: Fan, 2016.
5. Al-G'azzoliy. *Ihyo ulum ad-din*. – Qohira, 2002.
6. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
7. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. – Toshkent, 2021.
8. Abdullayeva M. *Ma'naviy tarbiya nazariyasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
9. Xolbekov A. *Talaba-yoshlar ma'naviyati va tarbiya muammolari*. – Toshkent, 2019.
10. Saidov U. *Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari*. – Samarqand, 2020.